

BILASIZMI?



Bilasizmi?

Akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon bekor qilinadi

"Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-200-son, 03.07.2023 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, oliy ta'lif dasturlari xalqaro reytingda yuqori 200 talik ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lif tashkilotlari dasturi asosida qayta ishlab chiqiladi.

Ta'lif tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi bekor qilinib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimi joriy etiladi. Bunda:

kompleks davlat akkreditatsiyasi har 4 yilda ta'lif tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o'tkaziladi;

litsenziyasi bekor qilingan ta'lif tashkiloti yoki yopilgan ta'lif dasturida o'qiyotgan talabalarga o'qishini davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlarining mos va turdosh ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklariga ko'chirish huquqi beriladi.

Shuningdek, ta'lif dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish amaliyoti joriy etiladi. Bunda:

Vazirlik tomonidan tan olingan xalqaro reyting tashkilotlarining birinchi 1 000 talikka kirgan oliy ta'lif tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi.

Oliy ta'lif tashkilotlarining reytingi ta'lif tashkilotining faoliyati va ta'lif jarayoniga aralashmagan holda ma'lumotlarni axborot tizimi orqali olish yo'li bilan yuritiladi.

2024 yil 1 yanvardan:

reyting davlat va nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari bo'yicha umumiyoq aniqlanadi;

so'nggi 5 yil davomida reytingda birinchi 10 talik o'rinni egallagan oliy ta'lif tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi.

2025 yil 1 yanvardan:

nodavlat oliy ta'lif tashkilotlariga davlat buyurtmasi asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha kvota ularning reytingdagi o'rniغا muvofiq ajratiladi;

oliy ta'lif tashkilotlarining ta'lif sohalari kesimidagi reytingini yuritish yo'lga qo'yiladi.

2023/2024 o'quv yilidan:

akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon asosida dastlabki saralash bosqichi bekor qilinadi;

kollej va texnikumlarning ta'lif dasturlariga davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari 2 baravarga oshiriladi;

abituriyentlarga "davlat granti" yoki "ta'lif yo'nalishi" ustuvorliklaridan birini tanlash va tanlagan ustuvorligi bo'yicha bakalavriat ta'lif yo'nalishlari ketma-ketligida tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi;

talabaning ta'lif yo'nalishiga mos startap loyihasi hamda ratsionalizatorlik q'oyasini bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilish amaliyoti joriy etiladi;

1 / 2

oliy ta'lif muassasalari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to'lanadigan qisqa muddatli maqsadli ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil etiladi.

2024/2025 o'quv yilidan:

OTMga kirish imtihonlarini topshirish "avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida tashkil etiladi hamda abituriyentlarga test sinovi natijasida to'plagan balidan kelib chiqib, oliy ta'lif muassasasi, ta'lif yo'nalishi va shaklini tanlash imkoniyati yaratiladi;

umumta'lim fanlaridan xalqaro imtihon natijalari bo'yicha sertifikatlar davlat OTMga qabul qilishda inobatga olinadi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-12-01 16:15:11